

FARZAND TARBIYASIGA OID FALSAFIY QARASHLAR

Saminbayev Mashhurbek

Urganch davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

mmott7777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi har bir zamon uchun dolzarb hisoblangan mavzu sifatida farzand tarbiyalash va uning zarurligi shuningdek, ushbu jarayonda Qobusnoma asarining ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Farzand tarbiyasi, pedagogika, hunar o'rgatish, adab.

“Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda ta'limga oid qabul qilingan barcha me'yoriy hujjatlarda har tomonlama kamol topgan, jamiyatga, turmushga moslashgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his eta oladigan fuqarolarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. Zero, har tomonlama barkamol yoshlar kelajakda yurt farovonligini belgilaydi.

Ma'lumki, shaxs kamolotida oilaviy tarbiyaning ta'siri juda katta. Oilada bolalarga tarbiyaviy ta'sir etish sifatini oshirish bugunning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Oiladagi nosog'lom psixologik muhit va tarbiyada yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar bola tarbiyasiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shaxs xususiyatlarining shakllanishi eng avvalo u aloqada bo'lgan ijtimoiy muhitga va oilaga bog'liq bo'ladi. Yoshlar shaxsidagi ma'naviy sifatlarni rivojlantirishda asosan quyidagi sifatlarga alohida ahamiyat qaratish lozim;

- Ota-onalarning oilada farzandlari bilan qilayotgan muomala va munosabatlari;
- Oilaviy tarbiyada bolalar va o'smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlari;
- Ota-onalarda bolalar tarbiyasi to'g'risidagi nazariy valiy bilim va ma'lumotlarning mavjudligi;
- Xalqimizning boy ma'naviy merosi, qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlarni

tarbiya usullari orqali yoshlarga yetkazilishi.

Oilaning juda katta tarbiyaviy funksiyaga ega ekanligi barchamizga yaxshi ma'lum. Oila haqiqatdan ham yoshlarda ijtimoiy va milliy qadriyatlarni, axloqiy fazilatlarni, hayotiy mezon va me'yorlarni, odob va nazokatlikni shakllantiruvchi muhim maskandir.

Ma'lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o'rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu borada buyuk Sharq mutafakkirlarining farzandlar tarbiyasi borasidagi boy ma'naviy merosi va undan samarali foydalanish katta ijobiy natija berish bilan birga katta ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Farobiy komil inson obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: "Har kimki ilm hikmatni o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' — salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun — qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol — dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin". Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim va tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy — axloqiy tarbiyada alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi.²⁹

Xuddi shu mazmunda Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida fikr bildirar ekan; "Bolani tarbiyalash oila ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota — ona tarbiyachi bo'lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama — yakka suhbatda bo'lish unga nasihat qilishdir"- deydi Ibn Sino.³⁰

Ma'lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o'rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu borada buyuk Sharq mutafakkirlarining farzandlar

²⁹ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Me'ros, 1997. — 67 b.

³⁰ Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoni tarjimasi. -Tehron: Eron milliy kutubxonasi, 1902. -28 b.

tarbiyasi borasidagi boy ma'naviy merosi va undan samarali foydalanish katta ijobiy natija berish bilan birga katta ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Qobusnomada, farzand tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgani bilan ajralib turadi. Masalan, farzand uchun hayotda eng kerakli narsalarni o'rgatish, ya'ni suzish, yaxshi xulq bilan bezatmoq, hunar o'rgatmoq, zarurligi ta'kidlanadi. Farzand tarbiya qilish jarayonida, bular juda muhim hisoblanadi. Farzand tarbiya qilish degani, faqat uni moddiy jihatdan ta'minlab qo'yish emas, aksincha unga turli xil bilimlarni berish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish hisoblanadi. Farzand tarbiyasi ko'p jihatdan ota-ona bilan bog'liq, aynan ular, farzandlarining tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishlari lozim. Hayotda esa, ayrim hollarda farzandlarini o'z holiga tashlab qo'yish holatlariga guvoh bo'lib qolyapmiz. Bu haqida Qobusnomada quyidagilar keltiriladi: "Farzandga adab, hunar o'rgatmakni meros deb bilgil. Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatadur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur"³¹. Demak farzand ota-ona tomonidan tarbiyalanmasa uni hayotning qiyinchiliklari tarbiyalaylab olar ekan. Lekin, bunda farzand tarbiyasi buzilib ketish holatlari uchrashi mumkin. Shunday ekan yoshlar tarbiyasi bilan o'ta-onaning o'zi qattiq shug'ullanmasa, uning tarbiyasida turli xil yot g'oyalar aks etishi mumkin.³²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoni tarjimasi. - Tehron: Eron milliy kutubxonasi, 1902. -28 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. -T.: Me'ros, 1998. -132 b.
3. Kaykovus. Qobusnoma O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2018
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Me'ros, 1997. — 67 b.

³¹ Kaykovus Qobusnoma 106-bet O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2018